



O'ZBEK TILI O'QITISHDA KREATIV TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH

Askarova Mashxura Akmal qizi

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs magistranti

asqarovamashhura0@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada ta'lim jarayonida ijodkorlikni rivojlantirishning ahamiyati va uning yoshlar uchun qanday foyda keltirishi tahlil qilinadi. Globallashuv sharoitida ijodiy fikrlash va innovatsion yondashuvlarning ta'limdagi o'rni va uni rivojlantirish to'g'risidagi fikrlar taqdim etiladi. Maqola ijodiy fikrlashni ta'limda rivojlantirishning turli metodologik yondashuvlarini, jumladan, Kaufman va Beghetto tomonidan ishlab chiqilgan To'rt C modeli hamda Edvard de Bononing "Oltita shlyapa" metodini o'rganadi. Shu bilan birga, maqolada ta'lim tizimida ijodiy fikrlashni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan omillar va ularni bartaraf etish uchun tavsiyalar keltirilgan. Ijodkorlikni rivojlantirish uchun ta'lim muhitida o'quvchilarning faolligini rag'batlantirish, ularni yangi yondashuvlarga undash muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar. Ijodkorlik, ijodiy fikrlash, ta'lim tizimi, to'rt C modeli, "Oltita shlyapa" metodi, innovatsion yondashuv, kreativ fikrlash.

ФОРМИРОВАНИЕ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В ПРЕПОДАВАНИИ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Аскарова Маишхура Акмал кизи

Ташкентский государственный университет



узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

Магистрант 2-го курса направления Узбекский язык и литература

asqarovamashhura0@gmail.com

Аннотация. В статье анализируется важность развития творческих способностей в образовательном процессе и какую пользу это приносит молодежи. Представлены представления о роли креативного мышления и инновационных подходов в образовании и его развитии в условиях глобализации. В статье рассматриваются различные методические подходы к развитию творческого мышления в образовании, в том числе модель «Четыре С», разработанная Кауфманом и Бегетто, и метод «Шесть шляп» Эдварда де Боно. Вместе с тем, в статье представлены факторы, препятствующие развитию творческого мышления в системе образования, и рекомендации по их устранению. Подчеркивается, что для развития творческих способностей важно поощрять активность учащихся в образовательной среде, побуждать их к новым подходам.

Ключевые слова. Креативность, креативное мышление, образовательная система, модель четырех С, метод «Шесть шляп», инновационный подход, креативное мышление.

FORMATION OF CREATIVE THINKING IN TEACHING THE UZBEK LANGUAGE

Askarova Mashkhura Akmal kizi

Alisher Navo'i Tashkent State

University of Uzbek Language and Literature

2st-year Master's student, Department of Uzbek Language and Literature

asqarovamashhura0@gmail.com



Abstract. The article analyzes the importance of developing creativity in the educational process and its benefits for young people. The article presents ideas on the role of creative thinking and innovative approaches in education in the context of globalization and their development. The article examines various methodological approaches to developing creative thinking in education, including the Four C model developed by Kaufman and Beghetto and the “Six Hats” method by Edward de Bono. At the same time, the article presents factors that hinder the development of creative thinking in the education system and recommendations for their elimination. It is emphasized that in order to develop creativity, it is important to stimulate the activity of students in the educational environment and encourage them to new approaches.

Keywords. Creativity, creative thinking, education system, four C model, “Six Hats” method, innovative approach, creative thinking.

Kirish

Globallashuv jarayonlari insoniyat hayotining barcha jabhalarida muhim o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ilm-fan, texnologiyalar, iqtisodiyot va madaniyatning tezkor rivojlanishi tafakkur doirasini kengaytirishni talab etadi. Ushbu sharoitda ijodkorlik jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biriga aylanib, shaxsiy va jamoaviy muvaffaqiyatning poydevorini tashkil etadi. Mazkur fikrlardan kelib chiqib bugungi kun yoshlarida ijodkorlik va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishimiz ta'limda dolzarb masalaga aylanmoqda.

Ijodkorlik — bu shaxsning individual xususiyatlaridan biri bo'lib, madaniy munosabatlarda shaxsiy yondashuv, o'z fikrini qo'llash va uni rivojlantirishni anglatadi. Ijodkorlikning izohidan kelib chiqqan holda, bu o'qituvchilarni shaxsiy innovatsiyalarga undovchi ta'lim berish tamoyili sifatida qaraladi. Ta'limda ijodiy



fikrlash yoshlarga rivojlanib borayotgan jamiyatda muvaffaqiyat qozona oladigan va muammolarni hal qiluvchi bo'lish imkoniyatini beradi.

Adabiyotlar tahlili

Amerikalik adabiyotshunos va o'qituvchi Garold Bloom o'zining Bloom taksonomiyasini ishlab chiqdi(1956). Uning fikriga ko'ra, ijodkorlik o'rganishning ajralmas qismi bo'lib, bu o'quvchilarga o'zlarining original ishlarini yaratish, muammolarni hal qilish, mahsulot yaratish yoki nazariyani ishlab chiqish imkoniyatini beradi degan fikrni ilgari surgan.

Kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy fikrlashdan farq qiladi. Kreativ fikrlash bilim va tajribaga asoslangan haqiqiy kompetensiya bo'lib, insonlarning keskin va murakkab vaziyatlarda kutilgan natijalarga erishishga sharoit yaratadi[1].

Ijodkorlik ta'lim jarayonining ajralmas qismidir, chunki u o'quvchilarga XXI asrda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan muhim malaka va qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Ta'lim jarayonida ijodiy yondashuvni qo'llab-quvvatlashning bir qancha afzalliklari bor.

1. Ijodkorlik talabalarga muammolarga yangicha va innovatsion usullar bilan yondashish imkonini yaratadi, bu esa muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalardir. Agar talaba biron bir g'oyani o'ylab topsa, ular mavjud "qobiqdan tashqarida" fikrlashni o'rganish tufayli yaqinlashib kelayotgan to'siqlarni aylanib o'tish yo'llarini topadi[2].
2. Ijodkorlik o'quvchilarga o'z fikrlarini ifodalash va jamoada boshqalar bilan muvaffaqiyatli ishlashda yordam beradi.
3. Ijodiy fikrlash talabalarga yangi sharoitlarga moslashish va qiyinchiliklar yuzaga kelganda yangicha yechimlar izlash imkoniyatini yaratadi.
4. Talabalar o'z ijodkorliklarini namoyon eta olsalar, ular o'z o'qishlarida faollik va motivatsiyaga ega bo'ladilar.



Kreativ fikrlashning yana bir afzalligi shundaki, o'quvchini faqat yod olishga majbur qilish o'rniga, izlanish va kashfiyot qilish qobiliyatlarini rivojlantirish orqali asosiy bilimni egallashga erishiladi[1].

Bundan tashqari ijodkorlik muvaffaqiyat va maqsadga erishish hissini taqdim etib, ruhiy salomatlik va farovonlikka ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin[3].

Umuman olganda, ta'limda ijodkorlikni rivojlantirish talabalarga hayoti davomida foyda keltiradigan muhim ko'nikma va qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Ba'zi o'qituvchilar fikricha, o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish, o'quv dasturidan tashqari faoliyatlarga jalb qilish orqali amalga oshiriladi. Biroq, aslida o'quvchilarni kreativ fikrlash qobiliyatlari turli fanlar doirasida hisobga olinadi. Ammo bugungi ta'lim tizimidagi ayrim talablar yoshlarning ijodiy fikrlashiga, yangiliklar yaratishiga yetarlicha to'sqinlik qilmoqda. Bunga misol qilib ta'lim tizimida keng foydalanib kelinayotgan test savollari orqali baholash va yodlashga asoslangan ta'lim shaklini olishimiz mumkin. Bu innovatsion fikrlash va tavakkal qilishga to'sqinlik qiladi. Shu bilan birgalikda bunday baholash tizimida past baho olgan o'quvchi o'z-o'zidan ilmga bo'lgan qiziqishning so'nishiga olib kelishi mumkin.

Ta'lim tizimida ijodiy fikrlashga bo'lgan to'sqinliklardan yana biri bu xato qilgan o'quvchilarni tez-tez jazolash va tavvakkalchilikka asoslangan fikrlarning qoralanishi[4]. Aynan mana shunday to'siqlar ham ijodiy fikrlashning rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Nazarimda, bir xil "qolip"da ta'lim olayotgan yoshlardan yangi innovatsion g'oyalar chiqishi dargumon. O'quvchi va talabalarga iloji boricha erkin fikr bildirishlariga qo'yib berishimiz va ularni qo'ldan kelgancha qo'llab-quvvatlashimiz lozim.

Metodologiya

Ta'lim jarayonida ijodkorlikni rivojlantirish va uni turli kontekstlarda qo'llashni chuqurroq tahlil qilish uchun Kaufman va Beghetto tomonidan ishlab



chiqilgan To'rt C modeli (Four C Model) nazariyasi[5] va Edvard de Bono tomonidan ishlab chiqilgan "Oltita shlyapa usuli"[6] asosiy metodologik asos sifatida tanlandi. Quyida modelning har bir darajasiga oid nazariy asoslar va ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyati keltirilgan. Undan so'ng esa "Oltita shlyapa usuli"ni ta'lim jarayonida qo'llash yuzasidan ma'lumotlar berib boriladi.

1. Mini-C (shaxsiy ijodkorlik)

Mini-C ijodkorlik yangi bilimlarni o'zlashtirish va shaxsiy talqinlarni shakllantirish jarayonida yuzaga keladi. Bu daraja o'quvchilarning o'z tajribasidan kelib chiqib, ijodiy fikrlashni rivojlantirishiga yordam beradi.

Ta'limda qo'llash:

O'quvchilarga mavzuni o'z talqinida qayta izohlashni topshiriq sifatida berish.

Shaxsiy tajribalar orqali yangi bilimlarni qabul qilishga rag'batlantirish.

Misol: Talabaning yangi mavzuni o'ziga xos tarzda tahlil qilib, o'z talqinini yozma yoki og'zaki ravishda ifodalashi.

2. Little-C (kundalik ijodkorlik)

Little-C ijodkorlik kundalik hayotdagi oddiy, ammo samarali ijodiy faoliyatni o'z ichiga oladi. Bu daraja o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini amaliy vaziyatlarda sinab ko'rish imkonini beradi.

Ta'limda qo'llash:

Dars jarayonida real hayotiy muammolarni yechishga doir topshiriqlarni bajarish.

Guruhlarda ishlash orqali yangi g'oyalar ishlab chiqish.

Misol: Talabalar yangi mavzuni tushuntirish uchun interaktiv dars rejasi yoki o'yin ishlab chiqishi.

3. Pro-C (professional ijodkorlik)

Pro-C ijodkorlik yuqori malaka va kasbiy tajriba orqali shakllanadi. Bu daraja murakkab vazifalarni yechishga qaratilgan ijodkorlikni o'z ichiga oladi.

Ta'limda qo'llash:

Mutaxassislikka oid loyihalarni ishlab chiqish.



Innovatsion texnologiyalar yoki g'oyalarni sinovdan o'tkazish.

Misol: Texnologiya sohasidagi talabalar yangi dasturiy ta'minot ishlab chiqadi yoki tibbiyot sohasidagi talabalar innovatsion davolash usullarini taklif etadi.

4.Big-C (tarixiy ijodkorlik)

Big-C darajasi butun jamiyatga ta'sir ko'rsatadigan, tarixda iz qoldiruvchi ijodkorlikni anglatadi. Bu darajadagi ijodkorlar o'z sohasida katta inqiloblar qilishadi va ularning ishlari asrlar davomida e'tirof etiladi.

Alisher Navoiyning buyuk asarlari, Albert Eynshteynning nazariyalari yoki Stiv Jobsning texnologiyadagi yutuqlari bunga misol bo'lishi mumkin.

To'rt C modeli ijodkorlikning turli darajalarini ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli qo'llashga imkon yaratadi. Bu yondashuv o'quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish bilan birga, ularning kundalik hayotdan tortib professional faoliyatgacha bo'lgan jarayonlarda ijodiy yondashuvni rivojlantiradi. Mazkur model yordamida ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi nazariy va amaliy tajribalar orttiriladi.

Edvard de Bono tomonidan ishlab chiqilgan "Oltita shlyapa" metodi ham ijodiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda keng qo'llaniladigan samarali vositalardan biridir. Bu usul inson fikrlash jarayonini turli nuqtayi nazarlardan ko'rib chiqishga yordam beradi. Har bir shlyapa ma'lum bir fikrlash turini ifodalaydi. Quyida bu metodning har bir shlyapasi haqida batafsil tushuntirish berilgan:



1. *Oq shlyapa* – *Analitik va faktlarga asoslangan fikrlash*. Oq shlyapa o'z ichiga faqat faktlar, statistikalar va dalillarni qamrab oladi. Bu fikrlash usuli hissiyot va shaxsiy fikrlardan holi bo'lib, faqat aniq ma'lumotlarni yig'ishga qaratilgan. Guruhda ishlash davomida oq shlyapa egasi o'ziga "Bizda qanday faktlar bor?", "Qaysi ma'lumot yetishmayapti?" kabi savollarni berish orqali ushbu metodni boshlaydi.




2. *Qizil shlyapa – Emotsional fikrlash*

Qizil shlyapa his-tuyg'ular, taxminlar va ichki sezgilarni ifodalaydi. Bu bosqichda hislar va intuitsiyalarni ochiq ifodalashga e'tibor beriladi. "Bu holatda qanday his-tuyg'ularni boshdan kechiryapman?", "Men nimadan qo'rqaman yoki nimadan umid qilaman?" ga o'xshash savollar bilan murojaat qilish asnosida metod davom etadi.



3. *Qora shlyapa – Tanqidiy fikrlash*

Qora shlyapa xavf-xatarlarni, kamchiliklarni va salbiy jihatlarni aniqlash uchun ishlatiladi. Bu shlyapa bilan muammo va tavakkalchiliklarni ko'rib chiqasiz. "Taqdim etilayotgan ma'lumotlarda qaysi jihatlar foydasiz?", "Nima sababdan bu muvaffaqiyatsiz bo'lishi mumkin?" kabi savollar metodning qiziqarli bo'lishiga yordam beradi. Masalan ta'lim jarayonida biror loyiha rejasini amalga oshirishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni aniqlash ham qora shlyapa "egasi"ning vazifasi hisoblanadi.



4. *Sariq shlyapa – Optimistik fikrlash*

Sariq shlyapa imkoniyatlar, ijobiy jihatlar va foydalarni aniqlashga qaratilgan. Bu shlyapa optimistic nuqtayi nazarni aks ettiradi. Masalan "Taklif etilayotgan g'oyaning ijobiy tomonlari qanday?", "Qanday foyda keltiradi?" kabi muammolar yechimi aynan sariq shlyapa orqali aniqlanadi.



5. *Yashil shlyapa – Ijodiy fikrlash*

Yashil shlyapa ijodkorlik va yangi g'oyalar yaratilishini ta'minlaydi. Bu bosqichda original, o'zgacha va innovatsion yechimlar ishlab chiqiladi. "Bu muammoni hal qilish uchun qanday yangi yondashuvlarni sinab ko'rish mumkin?", "Yaratgan g'oyalarni qanday rivojlantirish mumkin?" savollari orqali yechimlar aniqlanishi mumkin.



6. Ko‘k shlyapa – Tashkiliy fikrlash

Ko‘k shlyapa butun jarayonni boshqarish uchun javobgardir. Bu shlyapa rejalar tuzadi, natijalarni tahlil qiladi va boshqa shlyapalar orasidagi muvofiqlikni ta’minlaydi. “Qanday natijaga erishdik?”, “Keyingi qadamlar qanday bo‘ladi?” kabi muammoli savollarning yechimini topish ko‘k shlyapa “egasi”ning vazifasidir.

“Oltita shlyapa” metodidan foydalanish bo‘yicha misol:

Mavzu: Ta’limda ijodiy fikrlashni rivojlantirish dasturini yaratish.

1. Oq shlyapa: Ta’limdagi mavjud o‘quv dasturi va uning natijalari haqida ma’lumot yig‘iladi.

2. Qizil shlyapa: O‘qituvchilar va o‘quvchi-talabalarning bu dasturni joriy etish bo‘yicha hissiyotlari tahlil qilinadi.

3. Qora shlyapa: Dastur muvaffaqiyatsizlikka uchrashining xavflari aniqlanadi.

4. Sariq shlyapa: Dasturdan kutilgan foydalar va imkoniyatlar ko‘rib chiqiladi.

5. Yashil shlyapa: O‘quv dasturini yanada ijodiy va innovatsion qilish bo‘yicha yangi g‘oyalar taklif etiladi.

6. Ko‘k shlyapa: Muhokama davomida erishilgan natijalar umumlashtiriladi va qaror qabul qilinadi.

Tahlillar va natijalar

Yuqorida misol qilib keltirilgan savollar va topshiriqlarni metod mazmunidan chetlashmagan holda o‘zgartirish ham mumkin. Muhimi metodning g‘oyasi saqlanishidir. Bu metodlardan foydalanish dars jarayonini yanada qiziqarli va bahslarga boy o‘tishini taminlaydi. Bunday interaktiv o‘yinlar orqali biz o‘quvchi va talabalarda ijodiy va tanqidiy fikrlash, hamkorlikda ishlash, o‘zaro muloqot qilish va fikrlarni omma oldida erkin bildira olish ko‘nikmalarini shakllantiramiz. Fikr va mulohazalar cho‘g‘ida esa biz o‘zimiz uchun yangi fikrlar va shaxslarni kashf etamiz.

Muhokama va tavsiyalar



Ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish juda muhimdir. Albatta, bunday muhit yaratishda ustozning oʻrni katta: har bir oʻquvchi yoki talabaning fikrini tinglash, qoʻllab-quvvatlash, dars jarayonini boshqarish va uni toʻgʻri tashkil etishda oʻqituvchilar diqqatli boʻlishi talab etiladi. Savol va topshiriqlarga javoblar olinganda talabalarni ragʻbatlantirish ularga butun dars jarayonida oʻzgacha motivatsiya beradi. Shuning uchun ustozlar yuqorida sanab oʻtilgan tavsiyalarga alohida eʼtiborli boʻlishlari zarur.

Xulosa. Albert Eynshteyn aytganidek, “Ijodkorlik – bu zavqlanishdir.” Ijodkorlik XXI asrda muvaffaqiyatga erishish uchun zarurdir. Biroq, taʼlim tizimi koʻpincha imtihon natijalarini va eslab oʻrganishni taʼkidlab, xatolar va tavakkalchilikni qoralash va oʻzini namoyon qilish va muammolarni hal qilish uchun yetarli imkoniyatlarni taʼminlamaslik orqali ijodkorlikning rivojiga toʻsqinlik qiladi. Muammolarni hal qilish va ijodiy qobiliyatlarning cheklanganligi, oʻqishga qiziqish va motivatsiyaning pasayishi, shuningdek, ruhiy salomatlik va farovonlikka salbiy taʼsir qilish – bularning barchasi taʼlimdagi ijodkorlikni cheklashning oqibatlaridir.

Shuning uchun taʼlim tizimini isloh qilish, ijodkorlikni tarbiyalash, oʻquvchilarga muvaffaqiyatga erishish uchun zarur boʻlgan koʻnikma va malakalarni berish muhim ahamiyatga ega. Bunga tavakkalchilik va izlanishni ragʻbatlantirish, oʻz-oʻzini ifoda etish va muammolarni hal qilish imkoniyatlarini taqdim etish, shuningdek, oʻrganish jarayonini yakuniy mahsulotga nisbatan baholash kabi strategiyalar orqali erishish mumkin. Taʼlimda ijodkorlikni ragʻbatlantirish orqali biz nafaqat talabalarga foyda keltira olamiz, balki butun jamiyatning oʻsishi va muvaffaqiyatiga hissa qoʻshishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каршиева Д. К. Оʻquvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda xalqaro tadqiqotlarning oʻrni / Д. К. Каршиева, О. Н. Усмонова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2023. — № 2 (449). — С. 500-505.



2. Windebank F. 2020. Why creative education is important. [Online]. In R: Ed. Available at: <https://rightforeducation.org/2020/05/04/creative-education/>. (Accessed on 21 March 2023).
3. Ahmed T. The Role of Creativity in Education: How the Education System Stifles Creativity and What We Can Do About It. 2023.
4. Padayichie, K (2023, May 22). Creative Education. Retrieved from <https://www.structural-learning.com/post/creative-education>.
5. James C. Kaufman, Ronald A. Beghetto. Beyond Big and Little: The Four C Model of Creativity. Review of General Psychology American Psychological Association. 2009, Vol. 13, No. 1, 1–12.
6. <https://youtu.be/o3ew6h5nHcc?si=GdCoqw0Hxnb5zZdF>
7. Польшикова М А. Методика развития творческого мышления и творческих способностей учащихся на уроках литературного чтения в начальной школе в условиях реализации ФГОС. Обучение, воспитание, развитие, социализация – 2016. <https://open-lesson.net/5977/>
8. John Munro. Creativity in education: What educators need to know. Education for a Changing World. <https://education.nsw.gov.au/>-2019. p-26.
9. G'aniyeva Muborak Adilovna. (2024). TA'LIMDA YANGI TEXNOLOGIYA: 4K MODEL VA UNI AMALGA OSHIRISH YO'LLARI. Kokand University Research Base, 197–200. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/72>
10. Abdirimov I. O'QUVCHILARNI KREATIV FIKRLASHGA YO'NALTIRILGAN PEDAGOGIK JARAYONLARNI LOYIHALASHNING AYRIM MUAMMOLARI. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2023. Page- 427-435.
11. Vincent-Lancrin, Stéphan et al. "Fostering Students' Creativity and Critical Thinking." Educational Research and Innovation (2019): n. pag.



12. 4. Фаннинг Хильгунт. "Уроки Эдварда де Боно в контексте форсайта" Управление наукой и наукометрия, no. 5, 2008, pp. 142-149.

13. Thornhill-Miller B, Camarda A, Mercier M, Burkhardt JM, Morisseau T, Bourgeois-Bougrine S, Vinchon F, El Hayek S, Augereau-Landais M, Mourey F, Feybesse C, Sundquist D, Lubart T. Creativity, Critical Thinking, Communication, and Collaboration: Assessment, Certification, and Promotion of 21st Century Skills for the Future of Work and Education. J Intell. 2023 Mar 15;11(3):54.

14. 5. A.Azzam. Why Creativity Now? A Conversation with Sir Ken Robinson A. Azzam, 2019, Educational Leadership, 67(1), pp. 22–26.